

---

## XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH DAVR TALABI



Hunar — hunardan rizqing unar

Qo'shtepalik do'ppido'z Axlidil Saidxo'jayeva vodiyo vohani do'ppi bilan ta'minlayotgan qo'li gul hunarmandlardan. Do'ppido'z tayyorlayotgan do'ppilar xatto qo'shni davlatlar Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'istongacha yetib bormoqda.

U salkam yarim asrlik faoliyati davomida yuzlab shogirdlarni kamolga yetkazib, Qiyqi mahallasidagi 70 dan ziyod ayolni doimiy ish bilan ta'minladi. Do'ppido'zlar sulolasini davom ettirayotgan Axlidil Saidxo'jayeva Marg'ilonning o'ziga xos do'ppilarini o'z shogirdlari – qizlari, kelinlari va kasanachi ayollar bilan birgalikda nozik did sohiblariga yetkazib beryapti. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, Qiyqi mahallasidagi juda ko'plab ayollar do'ppido'zlik, yo to'n tikish, yoki tikuvchilik, qo'yingki, hunarmandchilikning qaysidir turi bilan mashg'ul.



- Oilada 8 ta opa-uka bo'lsak, barchamiz do'ppichilik bilan shug'ullanamiz, Allohga shukur kam bo'lmayapmiz, - deydi Axlidil Saidxo'jayeva. - Nega desangiz do'ppi tikish, tayyorlash ham tirikchilik, ham eng savobli va sharafli ishdir. Chunki hamyurtlarimiz qo'l mehnatimizni e'zozlab aziz boshlariga kiyib yurishadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-03-06 15:43:03